

I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY- IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2022-yil yanvar-dekabr)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021-yilning yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>	<i>Ming so'm</i>	<i>2021-yilning yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>
Sanoat	342,5	108,5	3 922,8	106,8
Iste'mol tovarlari	299,7	114,8	3 432,0	113,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 523,0	101,2	17 441,6	99,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar	1 489,0	296,0	17 056,5	289,6
Qurilish ishlari	460,5	109,2	5 275,1	107,5
Chakana tovar aylanmasi	437,8	109,8	5 015,2	108,0
Xizmatlar, jami	391,1	113,1	4 479,8	111,3

Tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i>Tashqi savdo aylanmasi</i>	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Saldo</i>
2022- yilning yanvar-dekabr oylarida	8269,5	5841,4	2428,1	3413,3

Nurota tumanining Navoiy viloyati bilan solishtirma asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-dekabr)

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>	<i>Nurota tumanining Navoiy viloyatida tutgan ulushi, % da</i>
Sanoat mahsuloti	342,5	108,5	0,4
Iste'mol tovarlari	299,7	114,8	6,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 523,0	101,2	9,5
Asosiy kapitalga investitsiyalar	1 489,0	296,0	7,8
Qurilish ishlari	460,5	109,2	7,6
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	60,9	113,7	3,0
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	50,1	101,8	1,2
Chakana tovar aylanmasi	437,8	109,8	3,6
Xizmatlar, jami	391,1	113,1	4,2
Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh doll.)	8269,5	132,9	0,7
Eksport (ming AQSh doll.)	5841,4	158,5	1,0
Import (ming AQSH doll.)	2428,1	95,7	0,4


Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili

	2022- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm		
	O'zbekiston Respublikasi	Navoiyviloyati	Nurota tumani
Sanoat	551 050,9	84 144,6	342,5
fizik xajm indeksi % da	105,2	105,7	108,5
Iste'mol tovarlari	197 892,7	4 676,5	299,7
o'sish sur'ati, foizda	119,4	104,2	114,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	364 522,8	16 070,5	1 523,0
o'sish sur'ati, foizda	103,6	103,6	101,2
Asosiy kapitalga investitsiyalar	269 857,5	19 396,1	1 189,0
o'sish sur'ati, foizda	100,9	118,2	296,0
Qurilish ishlari	130 767,1	6 062,5	460,5
o'sish sur'ati, foizda	106,6	109,3	109,2
Chakana tovar aylanmasi	319 288,2	12234,6	437,8
o'sish sur'ati, foizda	112,3	112,3	109,8
Jami xizmatlar	357554,5	9247,2	391,1
o'sish sur'ati, foizda	115,9	114,2	113,1
Eksport, mln. AQSH dollari	19 309,1	595,4	5,9
o'sish sur'ati, foizda	115,9	117,1	158,5
Import, mln. AQSH dollari	30 699,3	649,2	2,4
o'sish sur'ati, foizda	120,4	98,4	95,7

II.SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Nurota tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 342,5 mlrd. so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik xajm indeksi 108,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsuloti hajmi va fizik hajm indeksi



Tumanda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	2022- yil yanvar-dekabr
Sanoat korxonalarini, jami	283
- Yirik	-
- kichik korxonalar va mikrofirmalar	283
- sh.j. xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar	18

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


	O'lchov birligi	2021-yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	mlrd.so'm	9,1	15,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	mlrd.so'm	251,4	327,5
Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash	mlrd.so'm	-	-
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	mlrd.so'm	-	-

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida tumanda 299,7 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ni tashkil etdi. Jami sanoatdagi ulushi 87,5 % ni (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 233,8 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilgan, o'sish sur'ati 107,9 % ni) tashkil etgan.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi (2022- yil yanvar-dekabr)


	Sanoat mahsuloti hajmi		tarmoq korxonalar		hududiy korxonalar	
	Hajm, mlrd. so'm	o'sish sur'ati % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi, % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi, % da
Navoiy viloyati	84 144,6	105,7	77 645,0	92,3	6 499,6	7,7
Nurota tumani	342,5	108,5	70,4	20,6	272,1	79,4

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi



Jumladan, 53,7 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 17,9 % ni tashkil qilib, 246,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarildi va umumiy hajmga nisbatan 82,1 % foizni tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin.


Iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibi, foizda (2022- yilning yanvar-dekabr)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi


Tumanda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borilishi, o'z navbatida kichik biznes sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish hajmining doimiy o'sib borishiga sabab bo'lmoqda.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 342,5 mlrd. so'm bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 100,0 % ni tashkil etgan.



Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Nurota tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tumandagi sanoat korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 342,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki fizik xajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 foizni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 0,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib umumiy hajmga nisbatan 0,03 foizni tashkil etsada, nodavlat sektorida 342,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,97 foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida (foiz hisobidagi ulushi)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

2022-yil yanvar-dekabr oylarida tuman bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 922,8 ming so'mni va sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 3 432,0 ming so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, (ming so'm)

